

**MAVZU: BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARIDA NUTQIY
SAVODXONLIKNI OSHIRISHDA PEDOGOGIK
TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH.**

*Egamberganova Yorqinoy Ollabergan qizi,
Sadullayeva O‘g‘iloy Muhammadjon qizi
Nukus davlat pedagogika instituti
Boshlang‘ich ta‘lim fakulteti 1-kurs talabalari.*

Annotatsiya

Ushbu maqolada nutqiy savodxonlik tushunchasi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarning nutqini o‘stirishda pedagogik texnologiyalardan foydalanish ahamiyati ko‘rib chiqildi.

Kalit so‘zlar: nutq, nutqiy savodxonlik, nutq o‘stirish uslublari, nutq madaniyati, notiqlik, notiqlik san‘ati, nutq psixologiyasi.

Annotation

In this article, the concept of verbal literacy. The importance of using pedagogical technologies in the development of speech of primary school students was considered.

Key words: speech, speech literacy, speech development methods, speech culture, oratory, speech art, psychology of speech.

Аннотация

В данной статье рассмотрено понятие речевой грамотности. Рассмотрена важность использования педагогических технологий в развитии речи учащихся начальных классов.

Ключевые слова: речь, речевая грамотность, методы развития речи, культура речи, ораторское искусство, речевое искусство, психология речи.

Nutq- tilning fikr ifodalash va almashish jarayonlarda amal qilishi, tilning alohida ijtimoiy faoliyat turi sifatidagi muayyan yashash shaklidir. Nutq deganda, avvalambor, uning og‘zaki va yozma ravishda namoyon bo‘lishidagi jarayonlar, ya‘ni so‘zlash jarayoni va uning natijasi tushiniladi.¹ Nutq ma‘danyati og‘zaki va yozma adabiy til me‘yorlarini egallash shuningdek turli aloqa-aralashuv sharoitlarida tilning tasviriy vositalaridan nutqning maqsad va mazmuniga mos ravishda foydalanish mahoratini, tilshunoslikning tilni ma‘daniyati quroli sifatida mukammallashtirish maqsadida me‘yorlashtirish muommolarni o‘rganuvchi bo‘limi hisoblanadi. Nutq ma‘danyati avvallo to‘g‘ri adabiy til me‘yorlariga amal qilgan holda so‘zlashdir. Nutq ma‘danyati til ilmining nisbatan yosh sohadir. Nutq madaniyati ijtimoiy hodisa bo‘lib, u jamiyat, fan va texnika, madaniy va adabiy hayoti rivoji bilan chambarchas bog‘liq

holda taraqqiy etadi. Nutq madaniyatining shakllanishi va rivojlanishida adabiyot, san'at, radio, televideniya va davriy matbuotning alohida o'rni bor. Ayniqsa, adabiy tilni me'yorlashtirish va nutq madaniyati nazariyasini rivojlantirishda leksiografiya xususan, izohli, imlo, talaffuz, o'quv va boshqa maxsus lug'atlar muhim ahamiyatga egadir. Nutq madaniyati haqidagi ta'limot qadimgi Rim va Afinada shakllangan bo'lsa ham unga qadar Misr, Assuriya, Vovilon va Hindiston kabi mamlakatlarda paydo bo'lganligi notiqlik san'ati tajribasida ma'lum.²

Barkamol shaxs tarbiyasini tashkil etish barcha davrlarda ham ijtimoiy jamiyatning muhim talabi asosiy maqsadi bo'lib kelgan. Tabiiyki hozirgi ta'lim islohotlarining maqsadi ham shunday.³ 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasi rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida ijtimoiy sohani, jumladan, ta'lim va fan sohasini rivojlantirish borasida boshlang'ich ta'lim o'quvchilarning har tomonlama rivojlanishi uchun talay ko'rsatmalar ta'kidlab o'tilgan.⁴ 2023-yil 11-sentyabrda qabul qilingan "O'zbekiston-2023" strategiyasida ham "Umumiy o'rta ta'lim tizimini yangi bosqichga olib chiqish", "Professional ta'lim tizimini rivojlantirish orqali o'quvchilarni zamonaviy bilim va ko'nikmalarga o'rgatish bo'yicha" qonunlar qabul qilingan.⁵

Nutqiy rivojlanish jarayonini A.N. Levontayev quyidagicha tavsiflaydi: "Nutqni rivojlantirish jarayoni bola lug'atining va so'zlarning assotsiyasining asosida bog'lanishining ortishida ifodalanadigan miqdoriy o'zgarishlar jarayoni emas, balki sifat jihatidan o'zgarish jarayonidir, zero u fikrlash va ong rivojlanishi bilan ichki bog'langan holda so'zning barcha funksiyalari, tomonlari va aloqalarini qamrab oladigan haqiqiy rivojlanish jarayonidir". Bolalar nutqining paydo bo'lishi va rivojlanishi ularning atrofdagi odamlar bilan muloqot jarayonlarida ey beradi, degan qarashlar tizimi shakllangan.

Nutqni rivojlantirishda S.V. Petrina tomonidan tavsiya etilgan ko'rgazmali o'yin mashg'ulotlari va etnik harakterdagi o'yin-insenirovkalar ham muhim o'rin tutadi. Aniq shart-sharoitlardan kelib chiqqan holda, nutqni rivojlantirishda suhbat ko'rgazmali hamda o'yin usullaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir.⁶ Masalan o'quvchilarning nutqni oshirishda "PAZZLE" metodidan foydalanish samarali bo'ladi. Buning uchun avval o'quvchilarni guruhlariga bo'lib olinadi. Uchta guruhga ajratilsa uchta konvertaga mavzu bo'yicha ma'lumotlar pazzle shaklida qirqilib konvertga solinadi va guruhlariga tarqatiladi. Bu metod asosan uchta shartdan iborat bo'ladi. Birinchi shartda o'quvchilar pazzleni to'g'ri yig'ishi kerak bo'ladi. Ikkinchi shartda esa to'g'ri yig'ilgan ma'lumotlarni gapirib berishlari lozim bo'ladi. Bu jarayonda o'quvchilarning nutqi oshadi, nutqi orqali fikrni to'g'ri bayon qila olish qobiliyati oshadi. Nutq tufayli esa o'quvchilarning shaxsiy ongi, shaxsiy tajribalari bilan cheklanib qolmasdan, boshqa bolalarning tajribasi bilan boyitiladi. Uchinchi shartda o'quvchilarga berilgan ma'lumotlardan savollar beriladi va o'quvchilar shu savollarga

javob berishadi. Bu metoddan asosiy maqsad o‘quvchilarning nutqini oshirish, xotirasini rivojlantirish, jamoa bilan ishlash ko‘nikmalarini oshirish hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, nutqiy savodxonlik mustaqil fikrlash, fikr mahsulini nutq sharoitiga mos ravishda og‘zaki va yozma shakllarda to‘g‘ri, ravon ifodalash san’atidir. Hozirgi paytda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining nutqiy savodxonligining past bo‘lishini asosiy sabablaridan biri bolalarni maktabgacha bo‘lgan davrida ularning nutqini yaxshi rivojlanmagani deb bilamiz. Shuning uchun ham bolalarni yoshligidan boshlab nutqini o‘stirishga alohida e’tibor qaratish lozim. Shunday qilib boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining nutqini oshirishda turli xil og‘zaki nutqni rivojlantiruvchi metodlar, o‘yinlar yoki innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Chunki o‘quvchilarni nutqini rivojlantirishda turli xil og‘zaki nutqni rivojlantiruvchi metodlar, o‘yinlar katta rol o‘ynaydi. Bu o‘quvchilarni ham darsga bo‘lgan qiziqishini ortishiga sabab bo‘ladi.

Foydalangan adabiyotlar va internet resurslari:

1. Nutq (Wikipedia).
2. Nutq madaniyati (Wikipedia).
3. Babayeva Dono Razzoqovna, Najmiddinova Gulnoza Odilovna "Bolalar nutqini o‘stirish " o‘quv qo‘llanma. Toshkent; "Innovatsiya va Ziy" 2021 3-bet
4. J.R.G‘aniyevich. XXI asrda boshlang‘ich ta’lim va raqamli texnologiya. Interscience.uz 2022
5. Babayeva Dono Razzoqovna, Najmiddinova Gulnoza Odilovna "Bolalar nutqini o‘stirish " o‘quv qo‘llanma. Toshkent; "Innovatsiya va Ziy" 2021 31-bet
6. I.E.Mengnimurotovich, "Nutq va uning psixologik jihatlari". www.orriens.uz